

PRAGMATIKANING TARKIBIY OMILLARI VA ULARNING MOLIYAVIY DISKURSDAGI NAMOYON BO'LISHI

O'ZDJTU Ingliz tili tarjima nazariyasi kafedrasi
dostenti f.f.d.PhD Sh.N.Abdullayeva

Annotation. *The article examines the key components of pragmatics and its mechanisms that differ from semantics by relying on context, speaker intention, and the illocutionary and implicatural meanings of speech acts. Through the distinction between near-side and far-side pragmatics, the interpretation of indexicals, anaphora, and chains of reference is clarified. The study also analyzes the role of pragmatic factors in financial discourse, particularly their influence on market signals, investor behavior, and the institutional force encoded in communicative acts.*

Keywords: *pragmatics, near-side, far-side, speech act, illocutionary meaning, implicature, indexicality, reference, financial discourse, context.*

Аннотация. *В статье рассматриваются основные составляющие прагматики и её механизмы, отличающиеся от семантики опорой на контекст, интенцию говорящего и иллокутивные и имплицатурные значения речевых актов. Через разграничение near-side и far-side прагматики раскрывается интерпретация индексальных единиц, анафоры и референциальных цепочек. Кроме того, анализируется роль прагматических факторов в финансовом дискурсе — их влияние на рыночные сигналы, поведение инвесторов и институциональную силу коммуникативных актов.*

Ключевые слова: *прагматика, near-side, far-side, речевой акт, иллокутивное значение, имплицатура, индексация, референция, финансовый дискурс, контекст.*

Annotatsiya. Maqolada pragmatikaning asosiy tarkibiy omillari, uning semantikadan farqlanuvchi kontekstga, gapiruvchi niyatiga va nutq aktlarining illokutsion hamda implikatural ma'nolariga tayanadigan mexanizmlari yoritiladi. Near-side va far-side pragmatika orqali indeksik birliklar, anaforalar va referentsiya zanjirlari kabi unsurlarning talqini tushuntiriladi. Shuningdek, pragmatik omillarning moliyaviy diskursdagi roli — bozor signallari, investor xulqi va institutsional kuchning kommunikativ mazmunga ta'siri nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: pragmatika, near-side, far-side, nutq akti, illokutsion ma'no, implikatura, indeksikalik, referentsiya, moliyaviy diskurs, kontekst.

Pragmatika bu nutq aktlari, ya'ni ma'lum bir vaqtda va makonda so'zlovchilar tomonidan amalga oshiriladigan, til vositalariga asoslangan intensiyalar (ya'ni kommunikativ maqsad va pragmatik niyatlar) bilan shug'ullanadi. Mantiq va semantika odatda ifoda turlarining umumiy xossalarini o'rganadi; ya'ni ular turli nutq holatlarida yoki qo'llanilish kontekstida o'zgaradigan tafovutlarni hisobga olmaydi. Pragmatika esa aynan shunday nutqdan nutqqa farq qiladigan, kontekstga xos tafovutlar bilan shug'ullanadi. Shu sababli u ba'zida "kontekst ta'sirini o'rganadigan yo'nalish" sifatida ham tavsiflanadi. Biroq "kontekst" atamasi turli mualliflar tomonidan turlicha ma'noda qo'llanadi, shuning uchun uni ishlatishda ehtiyot bo'lish zarur [1, b.25].

Klassik pragmatikaning "beyond saying" (aytilgan narsadan ortiq ma'no) deb ataluvchi yondashuvi J. Austin va H.P. Grays tadqiqotlariga tayanadi. Ularning qarashiga ko'ra, aytilgan gap (semantik natija) va u orqali kontekstda bajarilgan harakat yoki yetkazilgan ma'no (pragmatik natija) aniq ajratilishi mumkin deb hisoblangan. Aynan mana shu nuqtayi nazar 1960–1980-yillar davomida "klassik pragmatika"ning asosiy masalasi bo'lib xizmat qilgan [2, b. 22].

J.Austin esa, ayniqsa, ijtimoiy fakt va konvensiyalarning nutq aktlarida, xususan, illokutsion aktlarda tutgan o'rniga e'tibor qaratadi. Chunki masalan, "Men

soat oltida seni olib ketaman” degan ifoda tinglovchi tomonidan va’da sifatida talqin qilinishi so‘zlovchining niyatiga, jamiyatdagi til ishlatish konvensiyalariga bog‘liq bo‘ladi [3, b. 23].

Turli tadqiqotchilar nutqning turli xususiyatlariga e’tibor qaratgan. Bu tafovutlarni tushunish uchun “*yaqin pragmatika*” (*near-side pragmatics*) va “*uzoq pragmatika*” (*far-side pragmatics*) tushunchalarini farqlash foydalidir. Klassik nutq holatlarida so‘zlovchi odatda deklarativ gaplar orqali biror fikrni bildiradi.

Yaqin pragmatika so‘zlovchining aynan nimani aytganini aniqlash uchun zarur bo‘lgan kontekstual va lingvistik omillarni o‘rganadi. Bunga *noaniqlik (ambiguity)*, *belgilovchilar (indexicals)*, *ko‘rsatkichlar (demonstratives)*, *anaforalar* va ayrim presuppozitsiya holatlari kiradi. {4, b.26}. Bu holatlarda, so‘zlovchi ishlatgan ifodalar va ularning lug‘aviy ma’nolaridan tashqari, nutq holatining real faktlari ham e’tiborga olinadi.

Uzoq pragmatika esa so‘zlovchi tomonidan aytilgan gap orqali qanday nutq akti (illokutsion) amalga oshirilgani yoki qanday implikatura yuzaga kelganini tahlil qiladi. Bu ya’ni “*aytilgandan keyingi bosqich*”, gap nima degani emas, balki gap bilan nima qilinayotgani haqida bo‘ladi. Shu orqali pragmatik talqin nutqning to‘liq kommunikativ qiymatini ochib beradi [4, b.27].

Pragmatikaning doirasi va vazifasi. Pragmatika tahlil qiladigan faktlarni bir nechta toifaga ajratish mumkin. Masalan, “men” (I), “hozir” (now), “bu yerda” (here) kabi indeksik birliklar uchun nutq hodisasiga oid asosiy faktlar zarur bo‘ladi: ya’ni, kim so‘zlagan, qachon va qayerda aytilgan. Boshqa indeksiklar va demonstrativlar uchun esa, gapiruvchining niyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “siz” (you) zamirining referenti, ya’ni kimga murojaat qilinayotgani, gapiruvchining intensioniga bog‘liq bo‘lib, bu bir nechta mumkin bo‘lgan tinglovchilardan qaysi biriga qaratilganiga qarab aniqlanadi.

Sintaktik va semantik cheklovlar doirasida, anaforik munosabatlar ham ko‘pincha so‘zlovchining maqsadi asosida belgilanadi. To‘g‘ri nomlarning

referentsiyasi (ya'ni, nimaga ishora qilayotgani) esa gapiruvchining niyati bilan bir qatorda, u bilan tashqi dunyo o'rtasidagi sababiy yoki tarixiy "referensiya zanjirlari" orqali belgilanadi.

Uzoq (*far-side*) pragmatika esa — til vositalari yordamida faqatgina nimadir aytilishini emas, balki shu aytish orqali nima amalga oshirilishini o'rganadi. Masalan, Volterning mashhur kinoyali gaplari ushbu yondashuv doirasiga kiradi. Olimning ta'kidlashicha, semantika qanday turdagi ifodalar orqali nimadir to'g'ridan-to'g'ri aytilayotganini o'rganar ekan, pragmatika bu ifodalar orqali qanday ma'no uzatilayotganini va qanday nutq aktlari amalga oshirilayotganini tahlil qiladi. [2 b.24].

Pragmatika, ko'pincha, semantikadan tubdan farqlanuvchi tafakkur shakliga tayanadi. Semantika konvensional qoidalarga asoslanib, ifodalarning ma'nolarini va ularning qo'llanish tartibini belgilaydi. Klassik modelga ko'ra, so'zlovchi o'z fikrini til birliklari yordamida kodlaydi, tinglovchi esa ushbu birliklarni dekodlab, yana fikr shakliga qaytaradi.

Bu yondashuv Jon Lok tomonidan aniq ishlab chiqilgan bo'lib, u muloqot jarayonini **fikr** → **kod** → **til** → **dekod** → **fikr** shaklidagi mental jarayonlar ketma-ketligi sifatida tasvirlaydi [3. 358–360]. Mazkur model F.Saussurening tilning signifiant–signifié dualizmi haqidagi qarashlari bilan hamohang bo'lib, keyingi struktural lingvistika maktablari tomonidan keng qo'llangan [4. b.98–101].

Ushbu model tilni fonologik, sintaktik va semantik qoidalar tizimi sifatida tasvirlaydi. Bu tizimni esa til biluvchilar bevosita anglab ishlatadi. Bu yondashuvga ko'ra, samimiy so'zlovchi o'z e'tiqodini ifodalovchi haqiqat shartlariga ega bayon yaratishga intiladi; u so'zlarni shunday tanlaydiki, natijada nutqi aynan shu haqiqat shartlariga ega bo'ladi. Tinglovchii esa bu bayonni idrok qilishi, fonemalarni, morfemalarni, so'z va iboralarni tanib olishi va ular orqali ushbu bayon va uning orqasidagi e'tiqodning haqiqat shartlarini tushunishi kerak.

Pragmatika esa bundan farqli o'laroq, qoidalarni qo'llashdan tashqariga chiqadigan tafakkur shakllarini talab qiladi. Bu **ehtimollik** (Bayes inferensiyasi),

induktiv fikrlash, eng yaxshi izohga asoslangan xulosa chiqarish yoki Grice tomonidan ilgari surilgan kommunikatsiyaga xos umumiy tamoyillarning amaliy qo‘llanilishi bo‘lishi mumkin. Har holda, bu semantik qoidalardan tashqarida ishlovchi **ampliativ** xulosa chiqarish usullarini o‘z ichiga oladi.

Pragmatika turli xil faktlarga tayansa-da, ular quyidagi asosiy toifalarda jamlanadi:

- **Nutq hodisasi haqidagi obyektiv faktlar:** masalan, kim so‘zladi, qachon va qayerda aytildi;
- **So‘zlovchining niyatlari:** yaqin (near-side) pragmatikada — qaysi tilni ishlatmoqchi, qanday ma’noni ko‘zda tutmoqda, qaysi ismlarni ishlatyapti, zamir demonstrativmi yoki anaforikmi; uzoq (far-side) pragmatikada esa — u bu gapni aytish orqali nimaga erishmoqchi;
- **So‘zlovchi va tinglovchi e’tiqodlari:** ular qanday bilimlarga ega, qanday konversatsiyada ishtirok etishyapti, qanday mavzuda gaplashishyapti va qanday kontekstda;
- **Ijtimoiy institutlar haqidagi faktlar:** masalan, va’da berish, nikoh marosimi, sud protseduralari kabi institutlar gapiruvchining so‘zlari orqali nimaga erishganini belgilaydi.[5. b. 668].
-

Xulosa sifatida ta’kidlashi joizkim pragmatika tilning formal semantik mazmunidan tashqariga chiqib, nutqning real kontekstda qanday ma’no kasb etishini, so‘zlovchining intensiyasini va bayonning ijtimoiy-institutsional kuchini tahlil qiladi. Near-side pragmatika indeksiklar, anaforalar va kontekstga bog‘liq ma’nolarni tiklasa, far-side pragmatika gap orqali qanday illokutsion akt amalga oshirilganini va qanday implikaturalar yuzaga kelganini aniqlaydi. Nutq hodisasi haqidagi obyektiv faktlar, gapiruvchi va tinglovchi e’tiqodlari hamda institutlarni tartibga soluvchi qoidalar pragmatik talqinning asosiy omillaridir. Moliyaviy diskursda esa bu mexanizmlar

ayniqsa kuchli namoyon bo'lib, bayonlarning bozor signallariga, investor xulqiga va iqtisodiy oqibatlariga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Stalnaker R. Pragmatics // Lepore E., Smith B. (eds.). *The Oxford Handbook of Philosophy of Language*. – Oxford: Oxford University Press, 2006. – S. 26–29.
2. Локк Дж. Опыт о человеческом разуме. — Москва: Мысль, 1985. — 678 с. С. 358–360
3. Соссюр Ф. де. Курс общей лингвистики. — Москва: Прогресс, 1977. — 310 с. с: 98–101.
4. Stalnaker R. Pragmatics // Lepore E., Smith B. (eds.). *The Oxford Handbook of Philosophy of Language*. Oxford: Oxford University Press, 2006. – S. 25–26.
5. Locke, J. *An Essay Concerning Human Understanding*. – London: Penguin Classics, 1997. – 777 p.
6. Yo'ldoshev U.R. Tarjimani o'qitish usullari. Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. 2020 yil 11-son 267-272-betlar.